



O‘ZBEK LUG‘ATSHUNOSLIGINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Sog‘inboyeva Shahzoda
Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek lug‘atshunosligi tarixining XV–XIX asrlarga oid davrida yaratilgan lug‘atlar, ularning mazmuniy va tuzilma jihatlari tahlil qilinadi. Xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Toli Hiraviy, Nazar Ali Sayyid, Muhammad Ya‘qub Chingiy kabi allomalar tomonidan yaratilgan lug‘atlar o‘z davri leksikografiyasi taraqqiyotining muhim bosqichlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Sab‘atu abhurlar”, “Badoyi‘ ul-lug‘at” va “Kelurnoma” asarlari misolida lug‘atlar tuzilishi, mavzular tizimi hamda leksik birliklarning joylashish tamoyillari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek lug‘atshunosligi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, “Sab‘atu abhurlar”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Badoyi‘ ul-lug‘at”, “Kelurnoma”, tarixiy lug‘atlar, leksikografiya.

THE DEVELOPMENT STAGES OF UZBEK LEXICOGRAPHY

Sog‘inboyeva Shahzoda
Student of Namangan State University

Abstract: This article analyzes the dictionaries created in the history of Uzbek lexicography during the 15th–19th centuries, focusing on their structural and semantic features. In particular, the works of prominent scholars such as Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Toli Hiraviy, Nazar Ali Sayyid, and Muhammad Ya‘qub Chingiy are examined as important stages in the development of lexicography of that period. Furthermore, the article explores the composition, thematic organization, and principles of arranging lexical units in such dictionaries as “Muhokamat al-Lug‘atayn,” “Sab‘atu Abhur,” “Badoyi‘ al-Lug‘at,” and “Kelurnoma.”

Keywords: Uzbek lexicography, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, Sab‘atu Abhur, Muhokamat al-Lug‘atayn, Badoyi‘ al-Lug‘at, Kelurnoma, historical dictionaries, lexicography.

O‘zbek lug‘atshunosligi tarixi asrlar davomida shakllanib, bugungi kunda ilmiy-nazariy asoslari bilan mustahkamlangan fan sohasiga aylangan. Xususan, XV–XIX



asrlar oralig'i o'zbek leksikografiyasi tarixida alohida o'rin tutadi. Bu davr lug'atlari o'zining mazmuniy boyligi, mavzular xilma-xilligi va ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda o'zbek lug'atshunosligi mustaqil fan sifatida shakllanib, o'z taraqqiyot yo'lini boshlab berdi.

Lug'at tuzish an'analari, so'zlarning izohli va etimologik jihatdan tahlil qilinishi, ma'nodosh va shakldosh birliklarning izchil tartibga solinishi bu sohaning yuksak ilmiy darajaga erishganini ko'rsatadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va uning zamondoshlari yaratgan lug'atlar o'zbek tilining tarixiy, madaniy va ilmiy rivojida beqiyos ahamiyatga ega.

Lug'atshunosligimizning 2-davriga oid lug'atlarda birmuncha mukammalligi va mavzu doirasi kengayganligini ko'ramiz. Mazkur holat lug'atlar mualliflarining yetuk ilm sohiblar ekanligi va o'zbek lug'atshunosligi mustaqil, taraqqiy etayotgan soha sifatida yuzaga kelib ulgurganini anglatadi. XV asr o'zbek tili lug'atchiligining to'liq ma'lumotlari, undagi so'zlar izohi, matnlar sharhi, etimologik kuzatishlarni Alisher Navoiy asarlari misolida ko'ramiz. Xususan, uning "Muhokamat ul - lug'atayn" asarida turkiy so'zlar sharhi, ularning o'zak va qo'shimchalari tahlili, shuningdek, omonimik va sinonimik qatorlar ilmiy tavsifi berilgan¹. Mazkur kuzatishlar lug'at tuzishda va so'zlarning mukammal izohlanishida muhim ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy o'ziga xos arab tili lug'atini ham yaratgan. Lug'at «Sab'atu abhur» ("Yetti dengiz") deb nomlanib, nomi Navoiy yetti manbadan foydalanganligiga ishora qiladi: Birinchi manba - Qur'oni karim, ikkinchi manba - hadisi sharif, uchinchi manba – arab adabiyoti va boshqalari ungacha yaratilgan arab tili lug'atlaridir. Navoiy bu lug'atni yaratishda Firuzabodiy (1326-1414)ning "Qomus ul-muhit" lug'atidan keng foydalangan. Navoiyning bu lug'ati 28 bobdan iborat bo'lib, har bir bob 28 ta faslga bo'lingan. Mazkur lug'atdagi so'zlar oxirgi harflariga qarab joylashtirilgan. Avval oxirgi bitta harfiga qarab, keyingi faslda oxirgi ikkita harfiga qarab so'zlar joylashtirilgan. A. Navoiyning bu lug'atida 60 mingdan ortiq arabcha so'z jamlangan bo'lib, muallif o'zidan keyingi ijod qiluvchi shoirlarga qofiya topish oson bo'lishi uchun tuzgan. A. Navoiy bu lug'atni nihoyasiga yetkaza olmagan, lug'at qoralama shaklida qolgan. Asar nashr etilib, yetarlicha o'rganilmagan². XVII asrda turkiyalik lug'atshunos olim Manniniy 20 yillik umrini ana shu lug'atni tartibga solishga bag'ishlab, oqqa ko'chirib kitob shakliga keltirgan. Unga bu ishida Turkiyadagi Kunya

¹ Хамидов З., Убайдуллаев А. Луғатлар тарихидан. // Тил ва адабиёт таълими, 2004, 6-сон. – 71-бет.

² http://www.navoi.uz/uz/content/about/about_alisher_navoi/



shahri hokimi homiylik qilgan. Uzoq yillik harakatdan keyin lugʻatning olti nusxasi yaratilgan. U hozir Aya Sofiya, Toʻp Qopi kutubxonalarida saqlanadi. Oʻzbekistonda ham lugʻatning ikki nusxasi mavjudligi haqida maʼlumotlar bor. Lugʻatda 60 mingdan ortiq arabcha soʻz jamlangan³.

Z. M. Boburning “Boburnoma” asarida nutq madaniyati, toponimik kuzatishlar bilan bir qatorda, lugʻatshunoslikka oid jihatlar ham koʻzga tashlanadi. Birinchidan, tizimli boʻlmas-da, bir qancha soʻzlarning etimologiyasi borasida qimmatli fikrlar bildiradi. Jumladan, Olachaxon, Boʻtaka kabilar izohida muallifning tilshunos sifatidagi qobiliyati koʻzga tashlanadi. Ikkinchidan, Bobur Hindiston voqealari haqida fikr yuritarkan, Hindistonning oʻsimlik, hayvonot olami, tabiati va odatlarini batafsil izohlaydi. Ayrim oʻrinlarda nomlanishi borasida boshqa tillarga qiyoslash holatlari kuzatiladi. Bobur nomlarni quyidagicha mavzuiy guruhlariga boʻladi: hayvon nomlari, parranda nomlari, suv va suv yoqalarida yuradigan qushlar nomlari, suv hayvonlari nomlari, nabotot nomlari, gul nomlari, fasl nomlari, kun nomlari kabi. Shuningdek, 1993-yilda prof. E.Umarov tomonidan AQSHning Indiana universitetidan keltirilgan qoʻlyozmalar fotonusxalari ichida “Mubayyin” asari qoʻlyozma nusxasi ham mavjud boʻlib, asar oxirida lugʻat ham berilgan⁴. Ushbu lugʻat Boburga tegishlimi yoki keyinchalik yaratilganmi, bu haqida maʼlumotga ega emasmiz.

XV-XIX asrlarda yaratilgan lugʻatlarning aksar qismi Navoiy va atoqli shoirlar asarlariga asoslangan. Husayn Boyqaroning topshirigʻi bilan 1500-yilda Toli Hiraviy tomonidan tuzilgan “Badoyiʼ ul-lugʻat” asari Navoiy asarlari asosidagi ilk lugʻat hisoblanadi. XVI asrda usmonli turk tilida yaratilgan “Abushqa” lugʻatida 2000 ta soʻz boʻlib, muallif asosiy lugʻaviy birliklarni ajratib olmay, har xil grammatik shakllardagi soʻzlarni alfavit tartibida berib boradi. Alfavit tartibi faqat boshlangʻich ikki tovushga tegishli xolos. Harfiga koʻra birlashtirilgan soʻzlar “bob”larga ajratiladi. “Bob”lar esa birinchi boʻgʻindagi undoshga qanday unli qoʻshilib kelishiga koʻra uch qismga boʻlingan⁵. Soʻzlarning lugʻatda bunday joylashtirilishi “Lugʻati atrokiya”da ham uchraydi. Asarning qimmatli tomoni shundaki, chigʻatoycha-turkcha deb atalgan bu lugʻatda umunga tushunarli boʻlmagan soʻzlarning koʻchma maʼnolari va maʼno

³ http://www.tdshi.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=205&Itemid=128

⁴ Мирзаев Т., Хайитметов А. Олимнинг ноёб тухфалари//ЎТА, 1993, №5 – 72-74-б.

⁵ Хасанов Б. Принципы отбора и расположения слов в рукописных словарях к произведениям Навои// Адабий мерос, 3(49), 1989. – 35-бет.



ottenkalari izohlanadi. Shuning uchun u ba'zi so'zlar semantikasini o'rganishda ishonchli material bera oladi⁶.

Nazar Ali Sayyidning "Navoiy asarlari lug'ati" yaqinda topilgan bo'lib, lug'at Navoiy, Lutfiy, Mir Haydar asarlarida uchrovchi turkiycha so'zlarning fors-tojikchaga tarjimai ko'rinishida. Muqaddimada o'zbek tilida so'z yasalishi, shuningdek, lug'atning avvalida shakldoshlik va ko'p ma'nolilik hodisalarining o'zbek tilidagi o'rni borasida qimmatli fikrlar bildirilgan, misollar keltirilgan. Lug'at ideologik lug'at xarakteriga ega bo'lib, ikkinchi faslda qarindoshlik terminlari izohlangan: og'a – birodari buzrug, ini – birodari ko'chak, egachi – xohari buzrug, singil – xohari ko'chak, yotlig' – duxtar, bo'ta – farzand. Undan so'ng tana a'zolari keltirilgan: engak – zanaxdon, ko'ksuk – siyna, manglay – peshona, tiz – zonu, ern – lab, tish – dandon⁷.

XVII asrda yozilgan Muhammad Ya'qub Chingiyning «Kelurnoma» asari ham tarjima lug'at (o'zbekcha-tojikcha) xarakteriga ega. Asar 15 bobdan iborat bo'lib, bir necha fasllarga bo'lingan. Dastlabki o'n to'rt bobda 400 dan ortiq fe'lning turli xil shakllar paradigmasi alfavit tartibi bilan beriladi. Natijada uya lug'atning namunasi vujudga keladi⁸. Eng so'nggi 15-bob esa mavzuiy (ideografik) lug'at bo'lib, so'zlar 9 mavzuiy guruhga ajratib beriladi. Har bir faslida ma'lum mavzuga oid jami 1300 ta so'z berilgan: "osmon", "yer", "qushlar", "ot va egarlanadigan hayvonlar", "odam jismi a'zolari" kabi. Inson organizmiga oid faslida so'zlar quyidagi tartibda beriladi: bash – sar, miya – mag'iz, sach – mo'y, qash – abro', manglay – peshona, ko'z – chashm, quloq – go'sht kabi⁹. Muallif lug'atni tuzishda Hindistonning turkiy tilli aholisining jonli tilidan keng foydalangan¹⁰.

XV–XIX asrlar o'zbek lug'atshunosligi o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotida muhim davr bo'lib, bu davrda yaratilgan lug'atlar milliy tilning boyligini, leksik tizimining shakllanishini aks ettirgan. Alisher Navoiy, Bobur, Toli Hiraviy, Muhammad Ya'qub Chingiy kabi allomalar tomonidan yaratilgan lug'atlar nafaqat leksikografik, balki madaniy, ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Ularning ishlari o'zbek leksikografiyasining keyingi bosqichlariga poydevor bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda bu asarlarning o'rganilishi nafaqat tarixiy

⁶ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 110-бет.

⁷ Умаров Э. Янги аниқланган Навоий луғати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 1-сон. – 94-бет.

⁸ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 105 бет.

⁹ Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 111-бет.

¹⁰ Мухаммад Якуб Чинги. Келурнома. – Ташкент: Фан, 1982. – С.11.



tilshunoslik uchun, balki zamonaviy lugʻatshunoslikning nazariy asoslarini mustahkamlashda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Замахшарийнинг “Муқаддимат ул-адаб” асари ва унинг тили ҳақида//ЎТА. №4, 1978.
2. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2005.
3. Мирзаев Т., Ҳайитметов А. Олимнинг ноёб тухфалари//ЎТА, 1993.
4. Хасанов Б. Принципы отбора и расположения слов в рукописных словарях к произведениям Навои// Адабий мерос, 3(49), 1989.
5. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
6. Умаров Э. Янги аниқланган Навоий луғати // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009.
7. Мухаммад Якуб Чинги. Келурнома. – Ташкент: Фан, 1982.
8. Самойлович А.Н. Персидский турколог XVIII в Мехдихан // Известия общества обследования и изучения Азербайджана. – Баку, 1927.
9. Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.
10. Мухиддинова К. «Санглах» Мирзы Мухаммеда Мехдихана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1971.
11. Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991.
12. Ҳусанов Н. Бир ноёб луғат ва унинг муаллифи // Фан ва турмуш, 1982.
13. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографияси тарихидан// Ўзбек тили ва адабиёти, 2008.